“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=362

2026-yil
4-son
aprel
ISSN 3093-8546



O‘zbekiston migratsiya qonunchiligining xalqaro standartlarga muvofiqligi tahlili

Sevinch Razzoqova,
Toshkent davlat yuridik universiteti
magistranti
e-mail: s.razzoqova@gmail.com

Аннотация. Maqolada O‘zbekiston migratsiya qonunchiligining xalqaro standartlarga, xususan, 1951-yilgi Qochqinlar maqomi to‘g‘risidagi konvensiya, uning 1967-yilgi Protokoli, BMTning Qiynoqlarga qarshi konvensiyasi, Xalqaro mehnat tashkilotining mehnat migrantlari huquqlariga oid konvensiyalari hamda boshqa asosiy xalqaro hujjatlar talablariga muvofiqlik darajasi tahlil qilingan holda maqolada qochqinlar maqomini belgilash tartibi, non-refoulement (majburiy qaytarishni taqiqlash) tamoyiliga rioya etilishi, mehnat migrantlarining huquqiy va ijtimoiy himoyasi, shuningdek, “nomaqbul chet elliklar” to‘g‘risidagi yangi qonunchilikning xalqaro huquq normalariga mosligi masalalari o‘rganiladi.

Калит сўзлар. O‘zbekiston migratsiya qonunchiligi, qochqinlar, non-refoulement tamoyili, migrantlar, xalqaro standartlar, UNHCR, qochqin maqomi, majburiy qaytarish, “noqonuniy chet elliklar”

Аннотация. В статье анализируется степень соответствия миграционного законодательства Узбекистана международным стандартам, в частности Конвенции о статусе беженцев 1951 года и Протоколу 1967 года, Конвенции ООН против пыток, конвенциям Международной организации труда, касающимся прав трудящихся-мигрантов, а также другим ключевым международным документам. В работе рассматриваются процедуры определения статуса беженца, соблюдение принципа non-refoulement (запрета принудительного возвращения), правовая и социальная защита трудовых мигрантов, а также соответствие нового законодательства о «нежелательных иностранцах» нормам международного права.

Ключевые слова. миграционное законодательство Узбекистана, беженцы, принцип non-refoulement, мигранты, международные стандарты, УВКБ ООН, статус беженца, принудительное возвращение, «нелегальные иностранцы».

Annotation. This article analyzes the level of compliance of Uzbekistan's migration legislation with international standards, in particular the 1951

Convention Relating to the Status of Refugees and its 1967 Protocol, the UN Convention against Torture, the conventions of the International Labour Organization concerning the rights of migrant workers, as well as other key international instruments. The study examines the procedures for determining refugee status, compliance with the principle of non-refoulement (prohibition of forced return), the legal and social protection of migrant workers, and the conformity of the new legislation on "undesirable foreigners" with international legal norms.

Keywords. Uzbekistan migration legislation, refugees, principle of non-refoulement, migrants, international standards, UNHCR, refugee status, forced return, "irregular foreigners"

Kirish. Migratsiya jarayonlarining global miqyosda rivojlanishi bugungi kunda deyarli barcha davlatlarni ushbu sohada samarali huquqiy mexanizmlarni shakllantirishga undamoqda. Mazkur vaziyatda O'zbekiston Markaziy Osiyoda muhim geosiyosiy o'ringa ega bo'lib, qochqinlar va mehnat migrantlari uchun ham tranzit, ham migrantlar uchun ko'p tashrif buyuradigan davlat sifatida namoyon bo'lmoqda. BMT ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab 250 milliondan ortiq kishi migratsiya jarayonlarida ishtirok etib kelishmoqda [1]. Ushbu konteksda O'zbekiston migratsiya qonunchiligining xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasini tahlil qilish nafaqat nazariy, balki amaliy ahamiyatga ham ega bo'lishi mumkin. Qochqinlar maqomini belgilash, mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish, non-refoulement tamoyiliga rioya etilishi hamda so'nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar xalqaro huquq talablari nuqtai nazaridan o'rganib chiqish mavzuning muhim ekanligini isbotlashga yordam beradi.

O'zbekiston 1951-yilgi Qochqinlar maqomi to'g'risidagi Konvensiyani va uning 1967-yilgi Protokolini ratifikatsiya qilmagan davlatlar qatorida qolayotganligiga guvoh bo'lmoqdamiz [2/3]. Bu holat mamlakatning qochqinlarni himoya qilish sohasidagi xalqaro majburiyatlarini belgilashda asosiy huquqiy bo'shliqni keltirib chiqarayotganini ham asoslab o'tish zarur. Xalqaro huquqshunos Guljahon Amanovaning ta'kidlashicha, O'zbekiston Konvensiyani ratifikatsiya qilmagan va o'z qonunini qabul qilishni rejalashtirmagan bir paytda BMT Qochqinlar bo'yicha Oliy komissarligi boshqarmasi (UNHCR) davlat bajarishi kerak bo'lgan ishlarni amalga oshirgan[4]. Ayniqsa, Tojikiston va Afg'onistondagi mojarolar davrida ushbu mamlakatlardan qochqinlar oqimi keskin ortgan.

Asosiy qism. Milliy qonunchilikda "qochqin" to'g'risida maxsus qonun yo'qligi sababli, bunday shaxslar huquqiy jihatdan "xorijiy fuqarolar" yoki "fuqaroligi bo'lmagan shaxslar" sifatida tasniflanishi ham bor gap. Bu esa ularning bir qator asosiy huquqlardan foydalanish imkoniyatini cheklashi mumkin. Masalan, qochqin bolalarning maktabda bepul ta'lim olish masalasi uzoq muzokaralardan so'ng, faqat BMT Bola huquqlari qo'mitasining

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

O‘zbekiston hisobotiga bergan savolidan keyin ijobiy hal etilgan. UNHCR mandati bo‘yicha berilgan qochqin maqomi esa Konvensiyaviy maqomdan farqli ravishda deyarli hech qanday ijtimoiy kafolatlar bermasligi, oliy ta’lim olish huquqi, to‘liq tibbiy xizmat va boshqa ijtimoiy nafaqalar mavjud emasligini ham Amanova Guljahon o‘z taqdiqoti davomida keltirib o‘tgan[5].

2022-yilda Toshkentda bo‘lib o‘tgan milliy seminarda O‘zbekiston qonunchiligi va amaliyotini 1951-yilgi Konvensiya qoidalari bilan qiyosiy tahlil qilish natijalari taqdim etilgan. Unda Bosh prokuratura vakili T.Umarov ekstraditsiya qilish tartiblari va ularni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish istiqbollari haqida ma’lumot bergan[6]. Biroq bugungi kunga qadar Konvensiyaga qo‘shilish bo‘yicha aniq siyosiy qaror qabul qilingani yo‘q. Shuningdek, non-refoulement (majburiy qaytarishni taqiqlash) tamoyili xalqaro qochqinlar huquqining asosiy prinsipi bo‘lib, u BMT Qiynoqlarga qarshi konvensiyasining 3-moddasida mustahkamlangan. Ushbu moddaga ko‘ra, “hech bir ishtirokchi davlat shaxsni qiynoqlarga duchor bo‘lishi mumkin bo‘lgan boshqa davlatga chiqarib yubormasligi, qaytarmasligi (“refouler”) yoki ekstraditsiya qilmasligi kerak” degan shaklda berilgan izohni ko‘rishimiz mumkin[7]. O‘zbekiston Qiynoqlarga qarshi konvensiyani ratifikatsiya qilgan bo‘lsa-da, milliy qonunchilikda qochqinlarni himoya qiluvchi maxsus mexanizmlarning mavjud emasligi ushbu tamoyilning amalda buzilish xavfini oshirishi mumkinligini ayta olamiz.

Yuqoridagi holatlarni ochiqlagan holda 2021-yil avgust oyida Tolibon Afg‘onistonda hokimiyatni qo‘lga kiritgach, 70 dan ortiq afg‘on jurnalisti, huquq himoyachilari, deputatlar va ularning oila a’zolari O‘zbekistonga qochib kelganini ham misol tariqasida keltirib o‘tish zarur. Ular uch oylik vaqtinchalik vizalar asosida mamlakatda bo‘lgan, ammo vizalar muddati tugaganidan keyin ularni qaytarish holati yuzaga kelgan. Inson huquqlari tashkilotlarining hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston 2021-yil avgustidan boshlab 150 nafar afg‘on fuqarosini “chegarani noqonuniy kesib o‘tgan” degan vaj bilan majburan qaytargan. Rasmiylar bu shaxslar “o‘z xohishi bilan” qaytganini va “xavfsizlik kafolatlari” olinganini ta’kidlagan bo‘lsa-da, AHRCA monitoringi ularning taqdiri noma’lumligini ko‘rsatib o‘tishgan[8]. Ushbu vaziyatdan keyin aytish joizki, afg‘onistonlik qochqinlar O‘zbekistonda ro‘yxatga olish bilan bog‘liq jiddiy to‘siqlarga duch kelgan bo‘lishi mumkin. Xorijiy fuqarolar uchun vaqtinchalik ro‘yxatdan o‘tkazish ijara shartnomasini taqdim etish va oylik to‘lov (taxminan 15-20 AQSh dollari) to‘lashni talab qilgan bo‘lishiga qaramay, ko‘plab afg‘onlar ijara shartnomasisiz uy ijaraga olishga majbur bo‘lishgan. Chunki bu arzonroq va eng oson yo‘l hisoblangan degan qarashlar mavjud edi. Natijada ular Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 225-moddasiga asosan jarimaga tortilgan[9]. Jarima miqdori 1 350 000 dan 2 700 000 so‘mgacha (125-250 AQSh dollari) yetgan. Eng muhimi, bu jarimalarni to‘lamagan taqdirda shaxs O‘zbekistondan

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

chiqarib yuborilishi va bir yil muddatga kirish huquqidan mahrum etilishi mumkin hisoblangan[10].

2024-yil sentabr oyida “O‘zbekiston Respublikasida chet el fuqarolarining va fuqaroligi bo‘lmagan shaxslarning huquqiy holati to‘g‘risida”gi qonunga qo‘shimchalar kiritish haqidagi qonun loyihasi ko‘rib chiqildi va senatorlar tomonidan ma’qullandi. Ushbu qonun O‘zbekiston va xalqining sha’ni, qadr-qimmati yoki tarixini haqorat qiladigan og‘zaki chiqishlar qilgan yoki bunday harakatlarda ishtirok etgan chet elliklarga besh yil muddatga mamlakatga kirishni taqiqlashni nazarda tutuvchi bir qancha holatlarni o‘z ichiga olgan edi[11]. Qonun loyihasi 2023-yil dekabr oyida rossiyalik yozuvchi va siyosatchi Zaxar Prilepinning Rossiya O‘zbekistonni anneksiya qilishi kerakligi haqidagi bayonotidan so‘ng tayyorlangan. Tabiiyki, xalqaro davlatlar tajribasiga qaraydigan bo‘lsak, ularning huquqiy hujjatlari nuqtayi nazaridan, ushbu qonun bir qator jiddiy tanqidlarga sabab bo‘lgan. “Article 19” tashkiloti va 25 ta xalqaro huquq tashkiloti O‘zbekiston Prezidentiga qonunni veto qilish to‘g‘risida murojaat yo‘llagan. Ularning bayonotiga ko‘ra, ushbu tuzatishlar “so‘z erkinligi bo‘yicha xalqaro standartlarning qo‘pol ravishda buzilishini anglatgan holda, mamlakatni izolyatsiya qilish xavfini keltirib chiqarishi” mumkin bo‘lgan degan ehtimoliy qarashlarni keltirib chiqargan bo‘lishi mumkin[12]. Qonunning asosiy muammosi shundaki, “sha’n, qadr-qimmat va tarixni haqorat qilish” tushunchalarining aniq huquqiy mezonlari belgilanmagan. Bu esa hukumatga har qanday tanqidiy fikrni, jumladan, xalqaro huquq himoyachilari va jurnalistlarning chiqishlarini “haqorat” sifatida talqin qilish imkoniyatini beradi[13]. Qonun migratsiya qonunchiligining bir qismi sifatida qochqinlar va migrantlarning huquqiy himoyasiga emas, balki ularni cheklashga qaratilganligi bilan ham xalqaro standartlardan tubdan farq qilishini ko‘rishimiz mumkin.

O‘zbekiston mehnat migrantlari, ayniqsa Rossiyada ishlovchi fuqarolarning huquqlarini himoya qilish borasida bir qator ijobiy vazifalarni amalga oshirganligi bilan taqsinga sazavordir. Jumladan, 2020-yil sentabrida Prezident tomonidan tashqi mehnat migratsiyasi sohasidagi vakolatli organlar faoliyatini takomillashtirish, xorijda ishlashni istagan shaxslarni tayyorlash, fuqarolarning xorijda huquqlarini himoya qilish, shuningdek, qaytib kelgan mehnat migrantlarining oila a’zolariga ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash ko‘rsatish bo‘yicha qaror qabul qilingan[14]. Inson huquqlari bo‘yicha milliy strategiya doirasida “Tashqi mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqilgan bo‘lib, uning maqsadi migrantlar huquqlari sohasidagi xalqaro standartlarni joriy etishdan iboratligi ham fikrimizning yorqin ifodasidir[15].

Otajonovning 2023-yilda nashr etilgan monografiyasida mehnat migratsiyasini tartibga solishning xalqaro standartlari va xorijiy davlatlar tajribasi, mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilishga oid xalqaro hamkorlikning huquqiy asoslari tahlil qilingan[16].

Tadqiqotda mehnat migratsiyasini tashkil etishning tashkiliy-huquqiy jihatlarini takomillashtirish istiqbollari belgilangan. Xususan, Xalqaro mehnat tashkiloti konvensiyalari (№97, 143, 189) talablari bilan milliy qonunchilikning uyg‘unligi masalalari o‘rganilgan[17/18]. Biroq Bakirova ta’kidlaganidek, O‘zbekistonning mehnat migratsiyasiga oid normativ-huquqiy bazasida norasmiy migratsiya oqibatida yuzaga kelayotgan huquqiy bo‘shliqlar va ziddiyatlar mavjud[19]. Buni asoslaydigan bo‘lsak, rasmiy kanallar orqali ishga joylashish mexanizmlari yetarli rivojlanmaganligi sababli, ko‘plab migrantlar noqonuniy yoki yarim qonuniy yo‘llarni tanlashga majbur bo‘layotganligini ayta olamiz. Bu esa ularni ekspluatatsiya, past ish haqi va xavfli mehnat sharoitlariga olib kelishi mumkin. Shuningdek, Xolmirzayevaning tadqiqotida O‘zbekistonning BMTning Xalqaro migratsiya tashkiloti, Taraqqiyot dasturi hamda Giyohvandlik va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi bilan olib borayotgan hamkorligi tahlil qilingan[20]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, asosiy muammolar huquqni qo‘llash amaliyotining sustligi, axborot almashish tizimining yetarli emasligi, iqtisodiy omillar va huquqiy madaniyatning pastligi ekanligi aniqlangan[21].

Migratsiyaning siyosiy ahamiyatiga qaraydigan bo‘lsak, Asadov tomonidan olib borilgan qiyosiy tadqiqotda O‘zbekiston migratsiya siyosati Markaziy Osiyoning boshqa davlatlari (Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston) bilan solishtirilgan tarzda o‘rganilgan[22:36-48]. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston xalqaro normalarni qabul qilishda ma’lum qadamlarni qo‘ygan bo‘lsa-da, uning siyosati bilan qo‘shni davlatlar siyosati o‘rtasida sezilarli tafovutlar saqlanib qolgan. Qozog‘iston 1951-yilgi Konvensiyani ratifikatsiya qilgan va qochqinlarni qabul qilish bo‘yicha rivojlangan huquqiy tizimga ega bo‘lsa, Qirg‘iziston ham Konvensiyaga a’zo bo‘lib, qochqinlarni identifikatsiya qilish va himoya qilish bo‘yicha milliy qonunchilikni ishlab chiqqanligi ham bu holatga misol bo‘ladi. O‘zbekiston esa ushbu yo‘nalishda hali muhim qadamlarni qo‘yishi lozim va bu holat unga yangi rivojlanish vaziyatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Shuningdek, hozirda Rossiyada markaziy osiyolik mehnat migrantlariga nisbatan ksenofobiya va zo‘ravonlik holatlari ortib borayotgani yurtdoshlarimiz haqida alohida xavotir uyg‘otadi. 2024-yil mart oyida Moskvadagi Crocus City Halldagi hujumdan so‘ng, “Rus jamiyati” nomli millatchi guruh politsiya reydlarida faol ishtirok eta boshlagan[23]. Ushbu guruh a’zolari tojikistonlik migrantlarni haqorat qilish, ularning mol-mulkini talon-toroj qilish va boshqa zo‘ravonlik harakatlarida ishtirok etishayotganligi ham so‘zimizni tasdiqlaydi O‘zbekiston hukumati fuqarolarining huquqlarini himoya qilish uchun Rossiya bilan ikki tomonlama shartnomalar tizimini mustahkamlashga harakat qilayotgan bir vaqtda bu sa’y-harakatlarning samaradorligi cheklanganicha qolmoqda.

O‘zbekiston miqyosida bolalar himoyasiga qaraydigan bo‘lsak, BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini 1992-yilda ratifikatsiya qilgan MDH davlatlari orasida birinchilardan bo‘lganini misol tariqasida keltirish o‘rinlidir[24]. 2008-yilda “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi qonun qabul qilingan. Biroq amaliyotda qochqin va migrant bolalar huquqlarini ta’minlashda muammolar hozirga qadar ko‘rinmoqda. Yuqorida qayd etilganidek, qochqin bolalarning maktabda bepul o‘qish masalasi faqat xalqaro tashkilotlarning uzoq davom etgan muzokaralaridan so‘ng ijobiy hal etilgan[25]. Ombudsman tomonidan 2026-yilda o‘tkazilgan monitoring natijalariga ko‘ra, voyaga yetmaganlarni ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalariga joylashtirishda bir qator huquqiy kamchiliklar hozirga qadar mavjud muammolardan biri hisoblanadi. Xususan, BMTning Ar-Riyod boshqaruv prinsiplarining 12-bandida oila bolalarni jamiyatdagi hayotga tayyorlash uchun mas’ul bo‘lgan asosiy birlik ekanligi, shuning uchun hukumat va jamoat tashkilotlari oilaning butunligini saqlashga harakat qilishlari kerakligi ta’kidlangan[26]. Shuningdek, prinsiplarning 46-bandida voyaga yetmaganlarni axloq tuzatish muassasalariga joylashtirish eng so‘nggi chora sifatida va eng kam zarur muddat davomida amalga oshirilishi lozimligi belgilangan. Biroq O‘zbekistonda voyaga yetmagan tomonidan huquqbuzarlik sodir etilmagan bo‘lsa-da, uning yaqin qarindoshlarining murojaatiga asosan maxsus turdagi o‘quv muassasasiga voyaga yetguniga qadar joylashtirish holatlari uchrab turibdi[27].

Xulosa. Fikr so‘nggida O‘zbekiston migratsiya qonunchiligining xalqaro standartlarga muvofiqlik darajasini tahlil qilish quyidagi asosiy xulosalarni keltirib o‘tish zarurdir:

Birinchidan, qochqinlar sohasida O‘zbekiston 1951-yilgi Konvensiya va uning 1967-yilgi Protokolini ratifikatsiya qilmagan holda qochqinlarni himoya qilishning milliy huquqiy bazasiga ega emasligi ham bir tomondan migrantlarga qaratilgan e’tiborning past ekaniga misol bo‘ladi. Bu holat UNHCRni mandatli qochqin maqomini berishga majbur qilishiga hamda bunday maqom Konvensiyaviy maqomga nisbatan kamroq huquq va ijtimoiy kafolatlar berishiga olib kelishi mumkin. Amaliyotda qochqinlar ro‘yxatga olish, mehnat qilish, ta’lim olish va tibbiy xizmatdan foydalanishda jiddiy to‘siqlarga duch kelayotganligini ham ifodalash muhimdir.

Ikkinchidan, non-refoulement tamoyiliga rioya etilishi borasida jiddiy xavotirlar mavjud. 2021-yilda Afg‘onistondan qochgan 70 dan ortiq shaxsning taqdiri va 150 nafar afg‘on fuqarosining majburan qaytarilgani xalqaro tashkilotlar tomonidan qattiq tanqidlarga sabab bo‘lganligini ham ushbu o‘rinda keltirib o‘tish darkor. Ushbu holatlardan keyin ma’muriy jarimalar tizimi va ro‘yxatga olish talablari qochqinlarni avtomatik ravishda qonunbuzar holatiga keltirib qo‘yishi mumkin.

Uchinchidan, “nomaqbul chet elliklar” to‘g‘risidagi qonunchilik xalqaro standartlar, xususan so‘z erkinligi va diskriminatsiyaga yo‘l

qo‘ymaslik tamoyillariga zid kelishi mumkin. Qonunning noaniq mezonlari uni suiiste’mol qilish imkoniyatini yaratishga hissa qo‘shishi mumkin.

To‘rtinchidan, mehnat migrantlari huquqlarini himoya qilish borasida ma’lum ijobiy o‘zgarishlar kuzatilayotgan bo‘lib, “Mehnat migratsiyasi to‘g‘risida”gi qonun loyihasi, ikki tomonlama shartnomalar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik migrantlarning huquqiy himoyasini kuchaytirishga qaratilmoqda. Biroq norasmiy migratsiya, huquqni qo‘llash amaliyotining sustligi va xorijiy mamlakatlarda, ayniqsa, Rossiyada, ksenofobiya kuchayishi jiddiy muammo bo‘lishi ehtimoli yuqoridir.

Shuningdek, O‘zbekiston migratsiya qonunchiligini xalqaro standartlarga to‘liq muvofiqlashtirish uchun quyidagi yo‘nalishlarda islohotlar o‘tkazish zarurdir. 1951-yilgi Konvensiyani ratifikatsiya qilish va milliy qochqinlar to‘g‘risidagi qonunni qabul qilish; qochqin maqomini belgilashning samarali va adolatli ma’muriy proseduralarini joriy etish; non-refoulement tamoyilining amalda rioya etilishini kafolatlovchi mexanizmlarni yaratish; mehnat migrantlari uchun ijtimoiy himoya tizimini kengaytirish; migratsiya siyosatini jinoiy javobgarlik va cheklovlar emas, balki inson huquqlari asosida qayta qurish tamoyillarining joriy etilishi migratsiya sohasidagi ko‘plab holatlarni yengillashtirishga yordam berishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Ombudsmani. Uzbek-Russian Forum “Rights of citizens of the Republic of Uzbekistan in the Russian Federation: labor migrants and their families”, 2021 // URL: https://ombudsman.uz/en/news/2021/05/21/ozbekiston-respublikasi-fuqarolarining-rossiya-federatsiyasidagi-huquqlari-mehnat-migrantlari-va-ularning-oila-azolari-mavzusidagi-ozbekiston-rossiya-forumi-tafsilotlari

2-4-5 Amanova Guljahon. “O‘zbekistonda qochqinlar haqida katta intervyu: nima uchun Konvensiyani ratifikatsiya qilish va qonunlarni o‘zgartirish vaqti keldi.” Anhor.uz, 2025 // URL: https://anhor.uz/uzl/ichkaridan-nazar/ozbekistonda-qochqinlar-haqida-katta-intervyu/

3-6. O‘zA. “Qochqinlar sohasidagi qonunchilik va amaliyot muhokama etildi.” // O‘zbekiston Milliy axborot agentligi, 2022 // URL: https://uza.uz/oz/posts/qochqinlar-sohasidagi-qonunchilik-va-amaliyot-muhokama-etildi_402572

7.8.9. Association for Human Rights in Central Asia (AHRCA), International Partnership for Human Rights (IPHR), Norwegian Helsinki Committee (NHC). “Uzbekistan: Afghanistani refugees at risk of refoulement”, 2021 // URL: https://ahrca.org/uzbekistan/refugees/1102-uzbekistan-afghanistani-refugees-at-risk-of-refoulement-2

10. Association for Human Rights in Central Asia (AHRCA), International Partnership for Human Rights (IPHR), Norwegian Helsinki Committee (NHC). “Uzbekistan: Afghanistani refugees at risk of refoulement”, 2021 // URL: https://ahrca.org/uzbekistan/refug

ees/1102-uzbekistan-afghanistani-refugees-at-risk-of-refoulement-2

11-12-13. Pannier B. “Central Asia in Focus: Uzbek Senate Adopts “Undesirable Foreigner” Law”. Caspian Policy Center, 2024 // URL: https://www.caspianpolicy.org/research/category/central-asia-in-focus-uzbek-senate-adopts-undesirable-foreigner-law

14-15. O‘zbekiston Respublikasi Ombudsmani. Uzbek-Russian Forum “Rights of citizens of the Republic of Uzbekistan in the Russian Federation: labor migrants and their families”, 2021 // URL: https://ombudsman.uz/en/news/2021/05/21/ozbekiston-respublikasi-fuqarolarining-rossiya-federatsiyasidagi-huquqlari-mehnat-migrantlari-va-ularning-oila-azolari-mavzusidagi-ozbekiston-rossiya-forumi-tafsilotlari

16-17. Otajonov. “Mehnat migratsiyasi sohasidagi davlat boshqaruvi: xorijiy tajriba va milliy amaliyot”. Monografiya. Toshkent: Fan va ta’lim, 2023. 108 b // URL: https://library.tsul.uz/uz/books/3783

18-19. Bakirova O. “Xalqaro va milliy huquqiy asoslar kontekstida mehnat migrantlarining huquqlari”. inLIBRARY, 2025 // URL: https://inlibrary.uz/index.php/tsru/author/citations/82328

20-21. Xolmirzayeva Sh.A. “O‘zbekistonning BMT bilan noqonuniy migratsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hamkorligi: muammolar va istiqbollar”. Toshkent davlat yuridik universiteti, 2023 // URL: https://jurisprudence.tsul.uz/archives/14048

22. Asadov D. “The Role of International Law in Shaping Migration Policies: A Comparative Study of Uzbekistan and Regional Trends in Central Asia”. International Journal of Business, Law and Political Science, 2024, 1(10): 36-48 // URL: https://www.researchgate.net/publication/386878164_THE_ROLE_OF_INTERNATIONAL_LAW_IN_SHAPING_MIGRATION_POLICIES_A_COMPARATIVE_STUDY_OF_UZBEKISTAN_AND_REGIONAL_TRENDS_IN_CENTRAL_ASIA

23. Pannier B. “Central Asia in Focus: Uzbek Senate Adopts “Undesirable Foreigner” Law”. Caspian Policy Center, 2024 // URL: https://www.caspianpolicy.org/research/category/central-asia-in-focus-uzbek-senate-adopts-undesirable-foreigner-law

24. O‘zbekiston Respublikasi Ombudsmani. “Voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash samaradorligini oshirish”. 2026 // URL: https://ombudsman.uz/oz/docs/voyaga-yetmaganlarning-huquq-va-erkinliklarini-taminlash-samaradorligini-oshirish

25. Amanova Guljahon. “O‘zbekistonda qochqinlar haqida katta intervyu: nima uchun Konvensiyani ratifikatsiya qilish va qonunlarni o‘zgartirish vaqti keldi.” Anhor.uz, 2025 // URL: https://anhor.uz/uzl/ichkaridan-nazar/ozbekistonda-qochqinlar-haqida-katta-intervyu/

26-27. O‘zbekiston Respublikasi Ombudsmani. “Voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini ta’minlash samaradorligini oshirish”. 2026 // URL: https://ombudsman.uz/oz/docs/voyaga-yetmaganlarning-huquq-va-erkinliklarini-taminlash-samaradorligini-oshirish